

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Filologiya fakulteti tyutori K.K.Zulfiyeva tomonidan 6-1 RUS 24 guruh talabalari bilan "Kitobxon talaba" loyihasi doirasida Malkolm Gladuellning "Zukkolar va landavurlar" asari tahlil qilinganligi to'g'risida

B A Y O N N O M A

03.05.2025 yil

Buxoro shahar

Qatnashdilar: Tyutor K.K.Zulfiyeva, ARM xodimlari Nasiba Ne'matova, Zamira Razzakovalar hamda 6-1 RUS 24 guruh talabalari.

KUN TARTIBI:

1. To'rtinchi tashabbus amalda.
2. Shukrulloning "Kafansiz ko'milganlar" asari muhokamasi.

ESHITILDI:

3-may kuni Filologiya fakulteti tyutori Kamola Zulfiyeva ARM xodimlari Nasiba Ne'matova va Zamira Razzakovalar bilan hamkorlikda 6-1 RUS 24 guruh talabalari ishtirokida Malkolm Gladuellning "Zukkolar va landavurlar" asari muhokama qilindi.

Malkolm Gladuell har doim mutlaqo tasodif hisoblab kelingan muvaffaqiyatlarning zamirida yotgan yashirin qonuniyatlarni topgan birinchi insondir. Bu qonuniyatlarni nega aksariyat buyuk xokkeychilar faqat yanvarda tug'ilganligini va hech qachon oktyabrda tug'ilmasligini, nima uchun matematikani osiyolik talabalar boshqalardan ko'ra osonroq o'zlashtirishini, nega Nyu-Yorkning eng obro'li advokati bo'lish uchun albatta yahudiy bo'lish lozimligini tushuntirib beradi. Bu kitob Bill Geys, "Bitlz" va Motsart kabi shaxslarni nima bog'lab turishini hamda ular nega o'z tengdoshlaridan o'zib ketganligini ko'rsatadi. "Zukkolar va Landavurlar" – yuqori darajadagi muvaffaqiyatga hissa qo'shadigan omillarni o'rganadigan ajoyib kitob. Muallifning ta'kidlashicha, biz ko'pincha imkoniyat va vaziyatning rolga emas, balki shaxsiy iste'dodga juda ko'p e'tibor qaratamiz. Kitobda berilgan yana bir tushuncha – bu "Metyu effekti". Bu boylar boyib boradi, kambag'allar esa qashshoqlashadi, degan fikr. Gladuellning ta'kidlashicha, bu hodisa nafaqat pulga, balki imkoniyatlarga ham tegishli. Imtiyozli sharoitlarda tug'ilganlar muvaffaqiyatga erishish uchun zarur imkoniyatlarga ega bo'lish ehtimoli ko'proq bo'lar ekan. Zukkolar va Landavurlar – bu muvaffaqiyat haqidagi an'anaviy tushunchamizni shubha ostiga qo'yadigan o'ylantiruvchi kitob. Katta yutuqlarga hissa qo'shadigan omillarni tushunishga qiziqqan har bir kishi o'qishi foydali bo'ladi. "Zukkolar va landavurlar" – "qanday qilib muvaffaqiyatli inson bo'lish" bo'yicha qo'llanma emas. Bu siz foydalanishingiz mumkin bo'lgan hayot qonuniyatlari olamiga zavqli bir sayohatdir. Kitob necha yil davomida "New York Times" va "Amazon" bestsellerlari ro'yxatidan tushmagan ushbu kitobni ko'plab mutaxassislar muvaffaqiyat haqidagi eng jiddiy kitob deb talqin etishgan. U tushunarli, aniq, ma'lumotga boy va qiziqarli tarzda yozilgani sabab ko'plab kitobxonlarga manzur bo'ladi.

QAROR QILINDI:

1. Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti tyutori K.K.Zulfiyeva tomonidan "Kitobxon talaba" loyihasi doirasida Malkolm Gladuellning "Zukkolar va landavurlar"

asari tahlili yuqori saviyada o'tkazilganligi qayd etilsin.

2. Tyutor K.K.Zulfiyeva tomonidan o'tkazilgan ushbu kitobxonlik soati bayonnoma tuzib rasmiylashtirilsin va bu boradagi ishlar davom ettirilsin.



Bayonlashtiruvchi:

K.K.Zulfiyeva

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Filologiya fakulteti tyutori K.K.Zulfiyeva tomonidan 6-1 RUS 24 guruh talabalari bilan "Kitobxon talaba" loyihasi doirasida Malkolm Gladuellning "Zukkolar va landavurlar" asari tahlil qilinganligi to'g'risida baynomani asoslovchi fotolavhalar



